



UDK 336.71:005.591.6:004

BANKLARDA LIKVIDLIKNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ubaydullayev Anvar Fayzulla o'g'li

Namozov Muhammadali Nuriddin o'g'li

Eshmurodov Mironshoh G'iyosiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali talabalari

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: anvarubaydullayev221@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada tijorat banklarida likvidlikni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida bank likvidligining mazmun-mohiyati, uni boshqarish zarurati hamda likvidlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, bank amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, big data, sun'iy intellekt va real vaqt rejimida monitoring qilish vositalarining likvidlikni boshqarishdagi o'rni ochib berilgan. Maqolada raqamli yechimlar orqali likvidlik risklarini kamaytirish, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda tezkor va aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimida likvidlikni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bank likvidligi, likvidlikni boshqarish, tijorat banklari, raqamli texnologiyalar, bank , likvidlik riski, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, axborot texnologiyalari.



ABSTRACT. This article examines the issues of effective use of digital technologies in improving liquidity management processes in commercial banks. During the study, the essence of bank liquidity, the necessity of its management, as well as the main factors influencing liquidity were analyzed. In addition, the role of modern digital technologies used in banking practice, including automated management systems, big data, artificial intelligence, and real-time monitoring tools, in liquidity management is revealed. The article substantiates the possibilities of reducing liquidity risks through digital solutions, enhancing the financial stability of banks, and making prompt and accurate management decisions. The research results are of practical significance for the development of liquidity management mechanisms and the acceleration of digital transformation in the banking system.

Keywords: bank liquidity, liquidity management, commercial banks, digital technologies, banking, liquidity risk, automated management systems, digital banking services, financial stability, information technologies.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования цифровых технологий в совершенствовании процессов управления ликвидностью в коммерческих банках. В ходе исследования проанализированы сущность банковской ликвидности, необходимость её управления, а также основные факторы, влияющие на ликвидность. Кроме того, раскрыта роль современных цифровых технологий, применяемых в банковской практике, включая автоматизированные системы управления, big data, искусственный интеллект и инструменты мониторинга в режиме реального времени, в управлении ликвидностью. В статье обоснованы возможности снижения рисков ликвидности с помощью цифровых решений, повышения финансовой устойчивости банков, а также принятия оперативных и точных управленческих решений. Результаты исследования имеют практическое значение для развития механизмов управления ликвидностью и ускорения цифровой трансформации банковской системы.



Ключевые слова: банковская ликвидность, управление ликвидностью, коммерческие банки, цифровые технологии, банковская деятельность, риск ликвидности, автоматизированные системы управления, цифровые банковские услуги, финансовая устойчивость, информационные технологии.

KIRISH. Likvidlilik tijorat banklari faoliyatida eng asosiy tushunchalardan biridir. Likvidlilik tijorat banklari ishonchliligi va barqarorligi asosini tashkil etadi va ularning to'lovga qobiliyatli bo'lishiga zamin yaratadi. Banklar likvidliliigi ularning to'lov qobiliyati va ishonchli bo'lishini ta'minlashda zarur kategoriya hisoblanadi.

Yuqorida batafsil tahlil qilinganidek, davlat ulushiga ega banklarning bank tizimidagi umumiy kapitaldagi ulushi 2020-yilda eng yuqori cho'qqiga yetgan, biroq keyingi yillarda barqaror pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat ilgari bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimi rivojlanishini susaytirgan va iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini cheklab kelgan. Mazkur tizimli muammolarga javoban, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 12-mayda PF-5992-sonli "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni imzolangan. Bu farmon bank tizimida mavjud bo'lgan vaziyatga chuqur tahliliy yondashuv sifatida baholanadi.

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda, banklar o'rtasidagi muloqot samaradorligini kuchaytirishda hamda pul-kredit siyosati mexanizmlarining ta'sirchanligini oshirishda tijorat banklari likvidliliğini tartibga solishning ahamiyati oshib bormoqda. Likvidlikni maqbul darajada saqlab turish bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi imkonini yaratib, moliyaviy vositachilik funksiyasining uzluksiz amalga oshishini kafolatlash va makroiqtisodiy xatarlarni yumshatishga xizmat qilmoqda. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, "likvidlikni samarali boshqarishning yetishmasligi 2008-yilgi moliyaviy inqirozning chuqurlashishiga olib kelgan, shu sababli Bazel III standartlari doirasida "Liquidity Coverage Ratio (LCR)" va "Net



Stable Funding Ratio (NSFR)” singari indikatorlar joriy etilib, uzoq va qisqa muddatli likvidlikni ta’minlash bo’yicha xalqaro mezonlar shakllantirilgan”¹. Bundan ko’rinadiki, yuqori darajada rivojlangan qimmatli qog’ozlar bozori, pul bozori, shuningdek, banklar o’rtasidagi kredit va depozit operatsiyalarining faol ishlashi zarurligi muhim ahamiyatga ega. Aynan shu omillar, ya’ni moliya bozorlarining chuqur va likvid bo’lishi, tijorat banklari likvidligini tartibga solish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot obekti sifatida “O’zsanoat qurilishbank” ATB Samarqand mintaqaviy filiali faoliyati va uning ma’lumotlari olingan.

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining tezkorligi, shaffofligi va qulayligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tijorat banklarida axborot texnologiyalariga asoslangan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish va inson omiliga bog’liq xatoliklarni kamaytirish imkonini bermogda. Bank amaliyotida mobil va internet-banking, masofaviy to’lov tizimlari, elektron hisob-kitoblar, big data va sun’iy intellekt texnologiyalari keng qo’llanilmoqda. Ushbu raqamli yechimlar mijozlarga 24/7 rejimida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratib, banklar uchun esa risklarni boshqarish, mijozlar xatti-harakatini tahlil qilish va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi. Bugungi kunda bank tizimida likvidlikni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Global moliya bozorlaridagi beqarorlik, raqobatning kuchayishi hamda mijozlar talablari ortib borishi sharoitida banklar likvidlik risklarini kamaytirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.



O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Qoraliyev, Sh.Abdullayeva, N.X.Jumayev, A.U.Burxonov, A.Omonov, O.Sattarov, M.Kurbonbekova, B.Izbosarov va boshqalar pul-kredit siyosati, kredit mexanizmi bank tizimining barqarorligi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, Markaziy bank valyuta siyosati hamda tijorat banklar likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Lekin alohida ta’kidlash lozimki, tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirishning amaliy ham metodologik tomonlari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, modellashtirish va prognozlash usullari, stress-testlash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bank - pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytiladi. Banklar paydo bo‘lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovarpul munosabatlarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Bank» italyancha «banca» so‘zidan olingan bo‘lib, «stol», aniqrog‘i, «pulli stol» ma’nosini anglatadi. Bank ishining asosiy yo‘nalishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit-hisob xizmati ko‘rsatishni amalga oshirish hisoblanadi.

Markaziy bank („banklarning banki“) (Milliy bank va AQShda Federal rezerv tizimi) mamlakatning jami kredit tizimini nazorat qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi va kredit stavkasini nazorat qiladi, naqd pul va qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasi bilan shug‘ullanadi, mamlakatning oltin-valuta zahiralarini saqlaydi, davlat va tijorat bankiga kreditlar beradi.




Tijorat banki o'z navbatida universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi. Ixtisoslashgan bank investitsiya banki, jamg'arma (omonat) banki, maxsus bank, kooperativ bank va boshqalardan iborat. Tijorat banki universal bank bo'lib jismoniy va yuridik shaxslarga xilma-xil bank xizmatlari ko'rsatadi (depozitlarni jalb etish, veksel hisobi, kredit berish, qimmatbaho qog'ozlarni sotish va sotib olish). Bu bank bank va kredit tizimining o'zagini tashkil etadi. Universal bank hamma turdagi asosiy bank harakatlarini amalga oshiradi. Ixtisoslashgan bank biron-bir faoliyatga, sohaga va tarmoqqa xizmat ko'rsatadi. Investitsiya banki, asosan, emissiyata'sischiлик operatsiyalar bilan shug'ullanadi va qimmatbaho qog'ozlar savdosini o'tkazadi. Maxsus bank muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko'rsatadi yoki ayrim sohalarda ixtisoslashadi (jamg'arma, savdo, tashqi savdo, ipoteka va boshqalar). Kooperativ bank tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan pay asosida barpo etiladi, ta'sischiликarning kredit va bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Tarmoq va hududiy prinsiplar bo'yicha tashkil topadi, tijorat bankining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Tijorat bankining likvidligi - bu bankning barcha mijozlari va boshqa subyektlar oldidagi qarz va majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining yetarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlaridagi mablag'larning vaqt oralig'ida muvofiq kelishi bilan aniqlanadi. Tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism - bank kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mablag'lar o'rtasidagi doimiy subyektiv mutanosiblikni saqlashdan iboratdir. Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir. "Likvidlik" atamasi lotincha (Liquidus) - oquvchan, suyuqlik ma'nosini anglatadi. Shularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlikka „zaxira“ yoki «oqim» deb qaraladi. Likvidlik zaxira shaklida tijorat bankining mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan



vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan zaxiralariга aylantirish yo'li bilan qoplashni ko'zda tutadi.

Likvidlik riski — bu bank yoki korxonaning o'z moliyaviy majburiyatlarini (qarzlari, mijozlar omonatlari) o'z vaqtida va ortiqcha yo'qotishlarsiz bajara olmaslik ehtimolidir. Bank tizimida ushbu riskni boshqarish moliya barqarorligining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Likvidlik riski odatda ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: Moliyalashtirish likvidligi riski (Funding Liquidity Risk): Bankning o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan naqd pulni jalb qila olmasligi yoki uni juda qimmat narxda olishga majbur bo'lishi. Bozor likvidligi riski (Market Liquidity Risk): Bank aktivlarini (masalan, qimmatli qog'ozlar) bozor chuqurligi yetishmasligi sababli o'z qiymatida tezda sota olmasligi. Riskni keltirib chiqaruvchi omillar Muddati mos kelmasligi (Maturity Gaps): Qisqa muddatli depozitlar hisobiga uzoq muddatli kreditlar berish natijasida pul oqimlaridagi uzilishlar. Depozitlar chiqib ketishi: Mijozlarning ommaviy ravishda o'z mablag'larini bankdan qaytarib olishi ("bank run"). Aktivlar sifati: Muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortishi bankka qaytadigan pul oqimini kamaytiradi. Tashqi bozor sharoitlari: Foiz stavkalarining o'zgarishi va iqtisodiy beqarorlik. 2026-yilda riskni boshqarish usullari Banklar ushbu xavfni kamaytirish uchun quyidagi zamonaviy vositalardan foydalanadi: Stress-testlar: Turli inqirozli ssenariylar (masalan, omonatlarning keskin kamayishi) ostida bank barqarorligini tekshirish. Likvidlik zaxiralari (LCR): Inqiroz davrida kamida 30 kun davomida to'lovlarni amalga oshirishga yetadigan yuqori likvidli aktivlar zaxirasini saqlash. Diversifikatsiya: Mablag'larni turli manbalardan (chakana mijozlar, korporativ mijozlar, moliya bozorlari) jalb qilish orqali bitta manbaga bog'lanib qolishni kamaytirish. Raqamli prognozlash: Sun'iy intellekt yordamida mijozlarning depozit olish xatti-harakatlarini va pul oqimlarini real vaqt rejimida bashorat qilish.



Agrobank ATBning moliyaviy ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi¹.

“Agrobank” ATB jami passivlari tarkibida bankning jami majburiyatlari salmog'i 2025-yil 1-yanvar holatiga 137 foizga ko'tarilgan. Bu o'z o'zidan bank likvidiligi rentabelligini ma'lum muddatga oshiradi.

Banklarda likvidlik muammolari bankning o'z majburiyatlarini (masalan, mijozlarning omonatlarini qaytarish yoki kredit berish) bajarish uchun yetarli miqdorda naqd pul yoki tez sotiladigan aktivlarga ega emasligi bilan bog'liq. Asosiy sabablar: Muddati mos kelmasligi (Maturity Mismatch): Bank qisqa muddatli depozitlarni olib, ularni uzoq muddatli kreditlar (masalan, ipoteka) sifatida berishi natijasida mablag'lar "muzlab" qolishi. Depozit bazasining beqarorligi: Mijozlar ommaviy ravishda o'z pullarini bankdan qaytarib olishni boshlaganda (bank run) likvidlik tanqisligi yuzaga keladi. Aktivlar sifatining yomonlashishi: Muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortishi bankka qaytishi kerak bo'lgan pul oqimini to'xtatib qo'yadi. Resurslarning konsentratsiyasi: Mablag'larning faqat bir nechta yirik mijozlar yoki tarmoqlarga bog'lanib qolishi. Oqibatlari: To'lov qobiliyatining yo'qolishi: Bank mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olmaydi. Ishonch

¹ Agrobank ATBning rasmiy sayti ma'lumotlari



inqirozi: Mijozlar va hamkorlarning bankka bo'lgan ishonchi yo'qoladi, bu esa omonatlarning yanada ko'proq chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Markaziy bank aralashuvi: Likvidlik tanqisligi yuzaga kelganda, O'zbekiston Markaziy banki banklarga favqulodda kreditlar berishi yoki ularning faoliyatini cheklashi mumkin. Tartibga solish: O'zbekistonda banklar likvidligini nazorat qilish uchun Markaziy bankning 2709-sonli nizomi asosida bir qator ko'rsatkichlar (LCR, NSFR) o'rnatilgan. Masalan, LCR (Liquidity Coverage Ratio) koeffitsiyenti bankning 30 kunlik inqirozli holatga bardosh bera olishini ta'minlashi kerak.

Banklarda likvidlikni boshqarish an'anaviy hisob-kitoblardan real vaqt rejimidagi (real-time) intellektual tizimlarga o'tdi. Raqamli texnologiyalar banklarga mablag' yetishmovchiligini oldindan bashorat qilish va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklari kreditlash darajasi va likvidlik holati o'rtasidagi muvofiqlik (YAIMga nisbatan ko'rsatkichlar asosida), foizda².

Ajratilgan kreditlar nomi	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y	2025-y
Aholi kreditlari	7	8	8	10	12	13	13
Xorijiy valyutada	16	20	19	18	18	17	16
Yuridik shaxslar	13	14	13	12	11	11	12
Jami	35	42	40	40	41	41	41

Kreditlar umumiy tuzilmasida aholi kreditlarining YAIMga nisbatan ulushi 2019-yildagi 7 foizdan 2024-yilga kelib 13 foizgacha oshishi prognoz qilingan. Biroq chakana kreditlashning barqarorlashuvi natijasida, bu ko'rsatkich kelgusi yillarda deyarli o'zgarmasligi kutilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy jamg'armalarning faollashuvi fonida kredit portfellarining dollarlashuv darajasi

² Muallif tomonidan shakllantirilgan.



pasayishi davom etishi kutilmoqda. Xususan, chet el valyutasidagi kreditlarning YAIMga nisbati 2020-yildagi 20 foizdan 2025-yilgacha 16 foizgacha oshishi prognoz qilingan.

Banklarda likvidlikni boshqarishdagi asosiy raqamli yechimlar:

1. Sun'iy intellekt (AI) va Mashinali o'rganish (ML) Mijozlar xatti-harakatini prognozlash: AI tizimlari yirik ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilib, qachon va qancha miqdorda omonatlar qaytarib olinishini yoki kreditlar so'ralishini yuqori aniqlikda bashorat qiladi. Pul oqimlarini optimallashtirish: ML algoritmlari bankning kundalik kirim-chiqimlarini tahlil qilib, g'aznachilikka (treasury) ortiqcha likvidlikni qayerga yo'naltirish yoki yetishmovchilikni qanday yopish bo'yicha tavsiyalar beradi.

2. Real vaqt rejimidagi monitoring (Real-time Liquidity Management) Dashboardlar: Zamonaviy bank tizimlari (masalan, SAP yoki Oracle Financials bazasida) bankning barcha filiallari va hisob raqamlaridagi likvidlik holatini soniyalar ichida ko'rsatadi. Intraday Liquidity: Bank ichidagi pul harakatini kun yakunini kutmasdan, kun davomida boshqarish imkonini beradi, bu esa tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi.

3. Blokcheyn va Smart-kontraktlar Banklararo tezkor hisob-kitoblar: Blokcheyn texnologiyasi orqali banklararo pul o'tkazmalari va likvidlik almashinuvi bir necha kun emas, balki bir necha daqiqada amalga oshiriladi. Likvidlikni "tokenizatsiya" qilish: Aktivlarni (masalan, davlat obligatsiyalarini) token ko'rinishiga keltirib, ularni garov sifatida tezda pulga aylantirish imkoniyati kengaymoqda.

4. RegTech (Regulatory Technology) Avtomatlashtirilgan hisobotlar: Markaziy bank talab qiladigan LCR va NSFR koeffitsiyentlarini hisoblash to'liq avtomatlashtirilgan. Bu inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi. [Stress-test simulyatsiyalari: Raqamli tizimlar soniyalar ichida minglab "nima bo'lsa, nima bo'ladi?" (what-if analysis) ssenariylarini (masalan, valyuta kursi keskin o'zgarishi yoki yirik mijoz chiqib ketishi) hisoblab chiqadi.



5. API (Open Banking) integratsiyasi Ekotizim bilan bog'lanish: API orqali bank boshqa moliya institutlari va fintech platformalar bilan bog'lanib, likvidlik tanqisligi vaqtida tashqi bozorlardan tezkor resurs jalb qilish kanallarini ochadi. Raqamli texnologiyalar likvidlikni shunchaki "nazorat qilish"dan uni "faol boshqarish" darajasiga olib chiqdi. Bu esa banklarga o'z mablag'larini samaraliroq ishlatish va kutilmagan inqirozlardan himoyalanih imkonini bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Hozirgi globallashuv va moliyaviy bozorlarning tezkor rivojlanishi sharoitida banklar faoliyatida likvidlikni samarali boshqarish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi bank tizimida likvidlikni nazorat qilish, tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Raqamli texnologiyalar — jumladan, katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt, real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari, avtomatlashtirilgan risk-menejment platformalari va fintex yechimlar — banklarga pul oqimlarini aniq kuzatish, kutilmagan likvidlik tanqisligining oldini olish hamda tezkor va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini bermoqda. Bu esa banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli vositalar likvidlik riskini baholashda inson omiliga bog'liqlikni kamaytirib, xatoliklar ehtimolini pasaytiradi. Stress-testlar va ssenariy tahlillarini avtomatik tarzda o'tkazish banklarga turli iqtisodiy holatlarda likvidlik darajasini oldindan baholash imkonini beradi. Natijada, banklar nafaqat muammolarga reaktiv tarzda javob qaytaradi, balki ularni oldindan prognoz qilib, profilaktik choralar ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar banklarda likvidlikni boshqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omil bo'lib, ularning to'g'ri va oqilona qo'llanilishi bank tizimining barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Kelajakda banklarning muvaffaqiyati aynan raqamli yechimlarni likvidlik boshqaruvi strategiyasiga qanchalik chuqur integratsiya qila olishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish to'g'risida" 2709-sonli Nizom.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF–5992-son Farmon. – Toshkent, 12 may 2020 yil.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio (NSFR). – Bank for International Settlements, 2014
4. Abdullayeva, Sh. Bank ishi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
5. Omonov, A. Banklarda likvidlikni boshqarish mexanizmlari. – Toshkent, 2022.